



INTERNET-DISKURS RIVOJLANISHINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA ULARNING LINGVISTIK TAHLILI

Oripova Kamolaxon Erkinjon qizi,

Qo'qon davlat universiteti o'qituvchisi (PhD).

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v18iB.1662>

MAQOLA HAQIDA/O СТАТЬЕ

Qabul qilindi: 18-may 2026-yil

Tasdiqlandi: 21-may 2026-yil

Jurnal soni: 18-B

Maqola raqami: 9

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Internet-diskurs, internet lingvistikasi, interaktivlik, emotsionallik, janrlar evolyutsiyasi, virtual kommunikatsiya, lingvosemiotika, konsept

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Mazkur ishda zamonaviy internet-diskursning lingvistik xususiyatlari va rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda internet-kommunikatsiyaning interaktivligi, emotsionalligi, janrlar evolyutsiyasi hamda foydalanuvchilarning kontent yaratishdagi faolligi kabi asosiy yo'nalishlar yoritiladi. Shuningdek, internet-diskursning konseptual makoni va lingvosemiotik modeli asoslari ko'rib chiqiladi. Ish natijalari internet lingvistikasi doirasida diskursni tizimli o'rganishga xizmat qiladi. Maqolada internet-diskursning lingvosemiotik tabiati, uning verbal va nonverbal vositalar uyg'unligida namoyon bo'lishi hamda virtual makondagi kommunikativ strategiyalar tahlil qilinadi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, messengerlar va multimedia platformalarida yuzaga kelayotgan yangi janrlar – vlog, stream, stories, post, chat va boshqa formatlarning til tizimiga ta'siri alohida ko'rib chiqiladi. Internet-diskursning konseptual makoni tarkibida "kiberjamiyat", "virtual reallik", "ijtimoiy tarmoq", "xeshteg", "blogger", "strimer", "tiktokker" kabi zamonaviy konseptlarning shakllanish mexanizmlari tavsiflanadi. Tadqiqot davomida internet-diskursning kommunikativ va sotsiomadaniy tabiatiga xos bo'lgan omillar aniqlanib, internet lingvistikasining interdisiplinar xususiyati asoslab beriladi. Muallif internet-kommunikatsiyaning til rivojiga ko'rsatayotgan ta'siri, yangi kommunikativ me'yorlarning shakllanishi hamda virtual muloqotning zamonaviy jamiyatdagi o'rni haqida ilmiy xulosalar beradi. Tadqiqot natijalari internet lingvistikasi, diskurs tahlili, lingvokulturologiya va zamonaviy kommunikatsiya nazariyasi doirasidagi ilmiy izlanishlarni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

ABOUT THE PAPER

Accepted: 18 may 2026

Approved: 21 may 2026

Volume: 18-B

Paper number: 9

KEYWORDS

Internet discourse, internet linguistics, interactivity, emotionality, genre evolution, virtual communication, linguosemantics, concept

ANNOTATION

This paper analyzes the linguistic features and development trends of modern internet discourse. It examines key aspects such as interactivity, emotionality, genre evolution, and users' active participation in content creation. Special attention is given to the conceptual sphere and the linguosemiotic model of internet discourse. The results contribute to the systematic study of discourse within internet linguistics. The article analyzes the linguosemiotic nature of Internet discourse, its manifestation in the combination of verbal and non-verbal means, and communicative strategies in the virtual space. In particular, the impact of new genres emerging in social networks, blogs, messengers, and multimedia platforms – vlog, stream, stories, post, chat, and other formats – on the language system is considered separately. The conceptual space of Internet discourse describes the mechanisms of formation of modern concepts such as "cybersociety," "virtual reality," "social network," "hashtag," "blogger," "streamer," and "tiktokker." During the study, factors inherent in the communicative and sociocultural nature of Internet discourse are identified and the interdisciplinary nature of Internet linguistics is substantiated. The author makes scientific conclusions about the influence of Internet communication on language development, the formation of new communicative norms, and the role of virtual communication in modern society. The results of the study will serve to further develop scientific research in the fields of Internet linguistics, discourse analysis, linguoculturology, and modern communication theory.

Kirish. Tilshunoslik fani tilni murakkab va ko'p qirrali tizim sifatida o'rganib, uning ichki tuzilishi, funksiyalari hamda jamiyatdagi o'rni bilan bog'liq qonuniyatlarni aniqlashga qaratilgan. Zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda til faqat statik tizim sifatida emas, balki ijtimoiy-madaniy va kommunikativ faoliyat mahsuli sifatida ham talqin qilinmoqda. Shu nuqtai nazardan, tilning yangi shakllari va qo'llanish muhitlarini o'rganish dolzarb masalalardan biriga aylangan.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida tilning qo'llanish sohasi kengayib, yangi kommunikativ makon – internet muhiti shakllandi. Bu esa tilshunoslikda yangi yo'nalish – internet lingvistikasining vujudga kelishiga olib keldi. Mazkur yo'nalish tilning virtual makondagi namoyon bo'lish xususiyatlarini, kommunikativ jarayonlarning o'ziga xos jihatlari hamda nutq ishtirokchilarining lingvistik xulq-atvorini o'rganishga qaratilgan. Internet lingvistikasi zamonaviy tilshunoslikda shakllanib borayotgan yangi ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu soha interdisiplinar xususiyatga ega bo'lib, unda sotsiolingvistika, matn lingvistikasi, nutq janrlari nazariyasi, lingvokulturologiya, kognitiv lingvistika hamda lingvopersonologiya kabi fanlar yutuqlari uyg'unlashadi.

Adabiyotlar tahlili. So'nggi yillarda internet-diskurs va internet lingvistikasi masalalari tilshunoslar e'tiborini tobora ko'proq jalb etmoqda. G'arb ilmiy muhitida kompyuter vositasida amalga oshiriladigan kommunikatsiya muammolari XX asrning 60-yillaridan boshlab o'rganilgan bo'lsa, mahalliy tilshunoslikda bu masala 1990-yillarning oxirlaridan boshlab faol tadqiq etila boshladi. "Postyozma" davr tiliga oid nazariy qarashlarni ilgari surgan olimlardan biri V.I. Karasik hisoblanadi.

Olim axborotni elektromagnit signallar orqali uzatish va saqlash imkoniyatlarining paydo bo'lishi natijasida "matn" tushunchasi kengayib, u verbal birliklar bilan bir qatorda vizual obrazlar, audio vositalar hamda boshqa semiotik komponentlarni ham qamrab oluvchi murakkab tizimga aylanganini ta'kidlaydi. Shuningdek, u ikon belgilar va obrazlarning kommunikatsiyada faol qo'llanishini zamonaviy diskursning muhim xususiyatlaridan biri sifatida izohlaydi hamda kompyuter vositasidagi muloqotda nutqiy xulq-atvorni tadqiq etish zarurligini asoslaydi [1, 56-b.].

Mazkur yondashuvlar internet-diskursni o'rganishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bois tadqiqotchilar internet-kommunikatsiyaning lingvistik tabiatini, uning janriy va pragmatik xususiyatlarini izchil o'rganishga alohida e'tibor qaratmoqdalar. Internet lingvistikasi yo'nalishining shakllanishi va rivojlanishida bir qator olimlarning ilmiy ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, A.A. Atabekova ingliz va rus tillaridagi veb-sahifalarda til birliklarining funksional qo'llanishini qiyosiy jihatdan tadqiq etib, internet makonida tilning milliy-madaniy xususiyatlari saqlanib qolishi bilan birga, globallashtirish ta'sirida umumiy kommunikativ me'yorlar ham shakllanayotganini ko'rsatadi [2, 84-b.].

O.V. Dedova elektron gipermatni lingvosemiotik nuqtai nazardan tahlil qilib, internet matnining chiziqli emasligi, giperurojaatlar orqali kengayuvchi tuzilishi hamda multimediyaviy xarakterini asoslab beradi. Olimning fikricha, elektron matn an'anaviy yozma matndan farqli ravishda interaktiv va ko'p qatlamli semantik tizim sifatida namoyon bo'ladi [3, 112-b.]. N.A. Axrenova esa internet-diskursni global madaniyatlararo hodisa sifatida talqin etib, virtual kommunikatsiya turli milliy madaniyat

vakillarini yagona kommunikativ makonda birlashtirishini ta'kidlaydi. Tadqiqotchining qarashlariga ko'ra, internet muhiti yangi lingvistik birliklarning shakllanishiga hamda kommunikativ stereotiplarning transformatsiyasiga sabab bo'lmoqda [4, 27-b.].

Shuningdek, P.V. Moroslin Runet makonidagi kommunikatsiyani lingvokulturologik jihatdan tahlil qilib, virtual muloqotda milliy mentalitet va madaniy qadriyatlarining aks etishini ko'rsatadi [5, 74-b.]. L.Yu. Shchipitsina esa kompyuter vositasidagi kommunikatsiyani kompleks lingvistik yondashuv asosida tadqiq etib, internet-diskursning fonetik, leksik, grammatik va pragmatik xususiyatlarini tizimlashtirishga harakat qiladi [6, 91-b.]. E.N. Galichkina kompyuter kommunikatsiyasining lingvistik maqomi, uning belgilar tizimi va janriy xususiyatlarini tadqiq qilib, virtual muloqotning o'ziga xos nutqiy me'yorlarini tavsiflaydi [7, 136-b.]. O.V. Lutovinova esa virtual diskurs doirasida til shaxsining shakllanishi, internet foydalanuvchisining kommunikativ identifikatsiyasi va virtual xulq-atvor masalalariga alohida e'tibor qaratadi [8, 58-b.].

Ta'kidlash joizki, yuqoridagi tadqiqotlar internet-diskursni o'rganishda muhim nazariy poydevor vazifasini bajaradi. Ayniqsa, ushbu ishlarida kompyuter kommunikatsiyasining lingvistik tabiati, uning janriy va semantik xususiyatlarini ochib berishga katta e'tibor qaratilgan. Biroq internet-diskursning dinamik rivojlanishi, yangi kommunikativ platformalarning paydo bo'lishi va virtual muloqotning polimodal xarakter kasb etishi uni pragmatik hamda kognitiv jihatdan yanada chuqurroq tadqiq etishni talab etadi.

Bundan tashqari, T.N. Kolokolseva va O.V. Lutovinova tahriri ostida chop etilgan ilmiy monografiyada internet-kommunikatsiya yangi nutqiy shakllanish sifatida talqin qilinib, uning diskursiv, lingvokulturologik va kommunikativ xususiyatlari kompleks tarzda yoritilgan [9, 15-b.]. Mazkur tadqiqotlar natijasida internet-diskurs zamonaviy tilshunoslikda mustaqil tadqiqot obyekti sifatida shakllanib, alohida ilmiy muammo sifatida qaralmoqda.

Metodologiya. Mazkur tadqiqot internet-diskursning zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini lingvistik jihatdan tahlil qilishga qaratildi. Tadqiqot jarayonida tavsifiy, qiyosiy, diskursiv hamda lingvosemiotik tahlil metodlaridan foydalanildi. Internet-kommunikatsiyaning til xususiyatlarini aniqlash maqsadida ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, messenjerlar va multimedia platformalaridagi matnlar kuzatildi hamda tahlil qilindi. Shuningdek, internet-diskursda qo'llanilayotgan verbal va noverbal vositalarning o'zaro uyg'unligi, kommunikativ strategiyalar hamda janriy transformatsiyalar o'rganildi. Tadqiqot davomida internet-diskursning interaktivlik, emotsionallik va polimodallik kabi asosiy xususiyatlari tizimli yondashuv asosida umumlashtirildi.

Natijalar. Zamonaviy tilshunoslikda lingvokulturologik yo'nalish doirasida internet-diskursni tashkil etuvchi konseptlarni tizimlashtirishga qaratilgan tadqiqotlar davom etmoqda. Ushbu yondashuv doirasida internet-diskurs konseptosferasini shakllantiruvchi asosiy tushunchalar aniqlanadi. Jumladan, bazaviy konseptlar sifatida "kompyuter", "internet", "foydalanuvchi", "dasturchi", "smartfon" kabi birliklarni ko'rsatish mumkin.

Shu bilan birga, internet-diskursning konseptual makoni yanada keng bo'lib, u "kiberjamiyat", "kiberjinoyatchilik", "kiberxavfsizlik", "kiberbulling", "virtual reallik", "veb-sayt", "ijtimoiy tarmoq", "Instagram", "TikTok", "xeshtag" kabi ko'plab tushunchalarni qamrab oladi. Mazkur konseptlar zamonaviy kommunikativ muhitning mazmuniy asosini tashkil etib, internet makonidagi til birliklarining semantik va pragmatik xususiyatlarini belgilaishda muhim rol o'ynaydi.

Alohida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlardan biri – lingvokulturologik tipajlar hisoblanadi. Ushbu tipajlar internet-diskurs doirasida shakllangan ijtimoiy va kommunikativ rollarni ifodalaydi. Xususan, dasturchi, xaker, geymer, tizim administratori, oddiy foydalanuvchi, "chaynik", "lamer", spamer, fluder, fleymer, xeyter, blogger, vloger, strimer, tiktoker, instablogger, moderator, kiberjinoyatchi kabi tipajlar internet muhitidagi subyektlarning xilma-xilligini aks ettiradi.

Muallif sifatida ta'kidlash joizki, bunday tipajlarning shakllanishi internet-diskursning nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy-madaniy tabiatini ham ochib beradi. Ayniqsa, ushbu birliklar orqali virtual makonda ishtirokchilarning kommunikativ xulq-atvori, ijtimoiy roli va identifikatsiyasi ifodalanadi. Shu sababli ularni o'rganish internet-diskursni chuqurroq anglash imkonini beradi.

Shu bilan birga, internet-diskursning rivojlanish jarayonida bir qator barqaror tendensiyalar kuzatiladi. Mazkur tendensiyalarni aniqlash va tahlil qilish internet kommunikatsiyasining istiqboldagi rivoj yo'nalishlarini belgilaishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Internet-diskurs rivojlanishida kuzatilayotgan muhim yo'nalishlardan biri – foydalanuvchilar o'rtasidagi "reaktiv" o'zaro ta'sirning kuchayishidir. Bu holat, avvalo, tarmoq kommunikatsiyasining interaktivlik darajasining ortishi bilan izohlanadi. Xususan, ijtimoiy tarmoqlar doirasida interaktivlik foydalanuvchi va auditoriya o'rtasida

jonli, tezkor muloqot muhitini shakllantirish imkonini beradi. Masalan, foydalanuvchilar ko'pincha kundalik qarorlariga oid savollarni auditoriyaga yo'naltiradilar. Bunda ular vizual material (masalan, bir nechta variantli suratlar) bilan birga "qaysi birini tanlash kerak?" kabi savol berib, turli javob variantlarini taqdim etadilar. Natijada obunachilar bevosita tanlovda ishtirok etib, kommunikativ jarayonning faol subyektiga aylanadi. Yana bir keng tarqalgan holat – kontentni baholashga oid interaktiv savollardir. Masalan, foydalanuvchi yangi mahsulot, kiyim yoki xizmat haqida post joylashtirib, auditoriyadan uning sifatini baholashni yoki o'z fikrini bildirishni so'raydi. Bu jarayonda "yoqdi/yoqmadi", "foydali/foydasiz" kabi qarama-qarshi variantlar orqali tezkor javob olish imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, bilim va qiziqishlarga asoslangan interaktivlik ham keng qo'llaniladi. Masalan, foydalanuvchilar qisqa testlar, savol-javob shaklidagi topshiriqlar yoki mini-viktorinalar orqali auditoriyani faollikka jalb etadilar. Bunday holatda ishtirokchilar nafaqat javob beradilar, balki o'z bilimlarini sinab ko'rish imkoniga ham ega bo'ladilar.

Shuni ta'kidlash joizki, yuqoridagi misollar internet-diskursning polimodal tabiatini yaqqol namoyon etadi. Ya'ni bunda verbal (matnli savollar) va noverbal (tugmalar, belgilar, emojilar, vizual materiallar) vositalar birgalikda qo'llanilib, kommunikativ samaradorlik oshiriladi. Interaktiv vositalar orqali foydalanuvchi auditoriya bilan ikki tomonlama muloqotni yo'lga qo'yadi va ularning fikrini kommunikativ jarayonning muhim elementi sifatida e'tirof etadi. Shunday qilib, interaktivlikning kuchayishi internet-diskursning asosiy rivojlanish tendensiyalaridan biri bo'lib, u muloqotni yanada dinamik, moslashuvchan va foydalanuvchiga yo'naltirilgan shaklga olib chiqadi.

Internet-diskurs rivojlanishida kuzatilayotgan ikkinchi muhim tendensiya – bu tarmoq muloqotining asta-sekin sinxronlashuvi, so'zlashuv nutqiga yaqinlashuvi hamda emotsionallik darajasining ortishidir. Mazkur holat, ayniqsa, chatlar, ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlar kabi real vaqt rejimida muloqotni ta'minlovchi formatlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Bunday muhitda kommunikatsiya tezkor, tabiiy va dialogik xarakter kasb etadi. Shu nuqta nazardan, internet-diskurs ishtirokchilarining kommunikativ rollarini ajratib ko'rsatish mumkin. Ulardan biri – adresant, ya'ni matn yoki post muallifi bo'lib, u axborotni ishlab chiqaruvchi subyekt hisoblanadi. Ikkinchisi esa adresat bo'lib, u axborotni qabul qiluvchi va sharhlovchi rolini bajaradi. Adresat o'z navbatida passiv va faol turlarga bo'linadi.

Muhokama. Passiv adresat – bu muloqot jarayonida bevosita faol ishtirok etmaydigan, ammo kontentni kuzatib boruvchi subyekt bo'lib, u faqat reaktiv elementlar (masalan, "layk", emoji yoki qisqa izohlar) orqali minimal darajada munosabat bildiradi. Faol adresat esa muloqot jarayonida to'liq ishtirok etib, fikr bildirish, munozaraga kirishish va axborotni boshqalarga yetkazish orqali kommunikatsiyani davom ettiruvchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Ilgari forum madaniyatida bunday foydalanuvchilar "faol ishtirokchi" sifatida tavsiflangan.

Internet-diskursning uchinchi muhim tendensiyasi esa uning shakl va formatlarining evolyutsiyasi, ya'ni ayrim janrlarning eskirishi va yangi janrlarning paydo bo'lishi bilan bog'liqdir. Masalan, avvallari keng tarqalgan ICQ yoki Bulletin Board System kabi tizimlar bugungi kunda o'z dolzarbligini yo'qotgan bo'lsa, ularning o'rni vlogging, stories, streaming kabi yangi raqamli janrlar egalladi.

Fikrimizcha, internet-muhitda shakllanayotgan kommunikativ madaniyat real dunyo madaniyatidan farqli ravishda o'ziga xos qiymatlar va ssenariylarni yaratadi. Shu sababli, virtual diskursda qo'llaniladigan janrlar doimiy ravishda o'zgarib boradi, yangi ifoda vositalari paydo bo'ladi hamda ular virtual adresatga moslashadi. Natijada janrlarning strukturasi ham, ularni tashkil etuvchi belgilar tizimi ham transformatsiyaga uchraydi.

Internet-diskurs rivojlanishi, bizning fikrimizcha, yangi texnologik formatlarning paydo bo'lishi natijasida janrlar sonining tez sur'atlarda ortishi bilan bevosita bog'liqdir. Shu jarayonda mualliflar yangi auditoriya ehtiyojlariga moslashadi hamda boshqa kommunikativ platformalarda mavjud bo'lgan cheklolarni kengaytirishga harakat qiladi. Masalan, Instagram platformasida faoliyat yurituvchi dietolog *Alla Zaydan* o'z obunachilariga murojaat qilib, ularni jonli efirga taklif etadi va Telegram kanaliga o'tish orqali yanada erkin va ochiq muloqot muhitini taklif etadi. U Instagramda ochiq muhokama qilinmaydigan, biroq Telegramda erkinroq ifodalanadigan mazmundagi fikrlarni baham ko'rishini ta'kidlaydi. Turli platformalar o'rtasidagi o'tish jarayoni kommunikatsiyaning ochiqlik darajasini o'zgartiradi. Ya'ni, nisbatan nazorat kuchli bo'lgan muhitdan (Instagram) ko'proq erkinlikka ega bo'lgan muhitga (Telegram) o'tishda nutqiy ifoda yanada samimiy, norasmiy va shaxsiy xarakter kasb etadi.

Zamonaviy internet-diskursning to'rtinchi muhim tendensiyasi esa foydalanuvchilarning axborot-kommunikatsiya kontentini shakllantirish jarayonida yuqori darajada ishtirok etishi bilan izohlanadi. Bugungi kunda

bloglar, YouTube kanallari va boshqa raqamli platformalarda kontent nafaqat individual foydalanuvchilar, balki jamoaviy mualliflar tomonidan ham yaratilmoqda. Postindustrial jamiyatda axborotning qadri ortib borayotganligi sababli, mualliflar auditoriya e'tiborini jalb etishga, maqsadli foydalanuvchini topishga hamda uning ishonchini qozonishga intilmoqda. Shu bilan birga, vizual komponentlarning ulushi ortib, verbal ifoda nisbatan ikkinchi planga o'tmoqda.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, internet lingvistikasi zamonaviy tilshunoslikning nisbatan yangi, biroq tez rivojlanayotgan interdisiplinar yo'nalishlaridan biridir. Ushbu tadqiqot doirasida internet-diskursning quyidagi asosiy yo'nalishlari ajratib ko'rsatiladi: kommunikativ, funksional-stilistik, sotsiolingvistik, lingvokulturologik va janr-diskursiv yo'nalishlar. Tadqiqot natijalariga ko'ra, internet-diskursning lingvosemiotik modeli ishlab chiqildi. U quyidagi tarkibiy elementlarni o'z ichiga oladi: internet-kommunikatsiyaning ikki asosiy modusi – aktual va tarmoq muloqotining dialektik birligi; konstitutsion va yordamchi belgilar tizimi; hamda kommunikatsiyaning o'zgaruvchan parametrlarini (kanal, ishtirokchilar, formatlar va muloqot rejimlari).

Internet-diskursning konstitutsion va qo'shimcha belgilarini ajratish mumkin. Konstitutsion belgilar qatoriga *bimodallik*, *polikodlilik*, *lingvokreativlik* va *prezentativlik* kiradi. Qo'shimcha belgilar esa yoshlar madaniyatiga yo'naltirilganlik (juvenilizatsiya), virtualizatsiya hamda

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. Волгоград, 2002.
2. Атабекова А.А. Сопоставительный анализ функционирования языка на англо и русскоязычных Web-страницах: дис. ... д-ра филол. наук. М., 2004.
3. Дедова О.В. Лингвosemiotический анализ электронного гипертекста: на материале русскоязычного Интернета: дис. ... д-ра филол. наук. М., 2006.
4. Ахренова Н.А. Интернет-дискурс как глобальное межкультурное явление и его языковое оформление: автореф. дис. ... д-ра филол. наук. М., 2009.
5. Морослин П.В. Лингвокультурологические основы теории функционирования Рунета в пространстве межкультурной коммуникации: дис. ... д-ра филол. наук. М., 2010.
6. Galichkina E.N. Yazykovye karakteristiki pravil i norm obshcheniya po sotovomu telefonu // Gumanitarnye nauki i obrazovanie. 2020. T. 11. № 4. S. 136–142.
7. Максимова О.Б. Язык в интернет-коммуникации: общие закономерности и национальнокультурные особенности (на материале русского и английского языков) // Вестн. Рос. ун-та

интерактивлык kabi xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Internet-diskursni boshqa diskurs turlaridan ajratishda asosiy mezon sifatida instrumental belgi qabul qilinadi. Shu asosda internet makonidagi nutq janrlari institutsional va personal turlarga bo'linadi. Personal internet-diskurs esa epistolyar va installiyatsion janrlarga ajratiladi.

Zamonaviy internet-diskurs tilshunoslikning interdisiplinar xususiyatga ega bo'lgan muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri sifatida shakllanib bormoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, internet-kommunikatsiya an'anaviy nutq shakllaridan farqli ravishda yuqori darajadagi interaktivlik, emotsionallik va sinxronlik bilan tavsiflanadi hamda bu xususiyatlar uning lingvistik tabiatini tubdan o'zgartiradi. Internet-diskursning rivojlanishida janrlar tizimining kengayishi va transformatsiyasi muhim o'rin tutadi. Yangi texnologik platformalarning paydo bo'lishi natijasida mavjud janrlar modifikatsiyalanib, yangi kommunikativ formatlar (*vlog*, *story*, *stream* va boshqalar) shakllanmoqda. Bu jarayon diskursning dinamik va o'zgaruvchan tabiatini tasdiqlaydi. Shuningdek, internet-kommunikatsiyada foydalanuvchilarning faol ishtiroki kuchayib, ular nafaqat axborotni qabul qiluvchi, balki uni yaratuvchi subyekt sifatida ham namoyon bo'lmoqda. Bu holat internet-diskursning polimodal (verbal va noverbal vositalar uyg'unligi) hamda interaktiv xarakterini yanada kuchaytiradi.

- дружбы народов. Сер.: Теория языка. Семиотика. Семантика. 2020. № 4. Т. 11. С. 74–79.
8. Лутовинова О.В. Лингвокультурологические характеристики виртуального дискурса. – Волгоград: Перемена, 2009.
9. Колокольцева Т.Н., Лутовинова О.В. Интернет-коммуникация как новая речевая формация. – Москва: Флинта, 2012.
10. Crystal D. Language and the Internet. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006.
11. Herring S.C. Computer-Mediated Communication: Linguistic, Social and Cross-Cultural Perspectives. – Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 1996.
12. Baron N.S. Always On: Language in an Online and Mobile World. – New York: Oxford University Press, 2008.
13. Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. – Москва: Наука, 2010.
14. Шарифуллин Б.Я. Интернет-лингвистика: проблемы и перспективы исследования // Филологические науки. – 2018. – № 5. – С. 45–52.
15. Горошко Е.И. Интернет-коммуникация: структура и тенденции развития // Вопросы языкознания. – 2017. – № 3. – С. 87–95.